

## ABDULAZIZZON MADRASASI

*Abdumominova Farangiz Yolqin qizi*

*Kamoliddin Bexzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti*

*Amaliy san'at fakulteti Me'moriy yodgorliklar bezagini  
ta'mirlash yunalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Abdulazizzon madrasasi (1652-y) Buxoroning yagona tarixiy ko‘rinishini tashkil etib kelmoqda. Aynan mohir ustalar tomonidan qurilgan Abdulazizzon madrasasining yaratilishi bilan bizning davrga qadar yetib kelgan sharqiy markaziy Osiyo me’morchiligining paydo bo‘lishiga tamal toshi qo‘yildi.

**Kalit so`zlar:** Abdulazizzon madrasasi, tarixiy ko‘rinishi, muhtasham binolar, madrasa, Butun Jahon yodgorliklari,

Buxorodagi me’moriy yodgorliklardan biri bo‘lgan Abdulazizzon madrasasi ashtarxoniyarning beshinchı vakili Abdulazizzonning buyrug‘i bilan me’mor Mimxoqon ibn Xo‘ja Muhammadamin tomonidan 1652-yilda qurilgan. (1-rasm) U o‘rta asrlarning songgi bosqichiga mansub bo‘lib, Buxorodagi Ulug‘bek madrasasi qarshisida qurilgan. Uning qurilishiga homiylik qilgan Buxoro xoni Abdulazizzon (1614-yil Balx – 1681-yil Makka) Nodir Muhammadxonning katta o‘g‘li bo‘lgan. 1626-yildan Xuttalon hokimi, 1630-yildan esa Balxning g‘arbiy tumanlari hokimi fazifasida faoliyat yuritgan. 1645-yildagi fitna natijasida Buxoro xonligi taxtini egallagan. Abdulazizzon markaziy hokimiyatni mustahkamlashga harakat qilgan, mamlakat obodonchiligiga birmuncha hissa qo‘shgan. Buxoroda ko‘pgina muhtasham binolar qurdirgan (Abdulazizzon madrasasi va b.).

Madrasa tuzilishi oddiy va hujralari ikki oshyonli. Katta peshtoq nafis va nodir koshinkori naqshlar bilan ziynatlangan. Islomiy naqshlar qatorida afsonaviy jonivorlar tasviri ham berilgan. Madrasa hujralari, ayniqsa, janubiy ayvon peshtoqi turli-tuman naqshlar bilan bezatilgan. Gumbaz shipining ganchli muqarnaslari orasida islimiy naqshlar va zarhal bezagi bor. Naqshlar, asosan, moviy rang bo‘yoqlar bilan chizilgan. Asosiy o‘lchami:

atrof aylanasi 50×67 m.

hovli — 28×35 metr bo‘gan.

Madrasa XVII asrda Buxoro mahobatli me’morchiligining yetuk namunasidir. Bugungi kunda madrasa hovlisida sayyoohlar uchun milliy musiqa va folklor tomoshalari ko‘rsatiladi. Shimoliy-sharqiy burchagidagi miyonsaroyda Buxoro yog‘och o‘ymakorligi namunalaridan iborat ko‘rgazma tashkil etilgan. O‘zbekiston hukumati tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, 1997-yil Buxoro

shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha me'moriy inshootlar qatorida Abdulazizzon madrasasi ham qayta ta'mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi. Abdulazizzon madrasasi sirtdan qaraganda Ulug'bek madrasasi kabitidir: bu madrasa kompozitsiyasi ham uzunchoqroq bo'lib, old tomonining markazida ravoqli peshtoq, burchaklarida burj — guldastalar ishlangan, 2 qavatli yon qanotlar, kiraverishdagi xonalar va hovli chor atrofidagi 2 qavatli qator ravoqlar tizmasi ham o'xshab ketadi. Ammo, Abdulazizzon madrasasi yirikroq va murakkabroq loyihalashtirilgan. Yon tomonlarining markaziy qismi 2 qavatli hujralar bilan urg'u berib, biroz tashqariga bo'rttirib chiqarilgan va hovli kompozitsiyasi bilan peshtoq yordamida uyg'unlashtirilgan. Burchaklardagi beshqirrali yo'laklardan shu burchaklardagi bir qancha katta-kichik hujralarga o'tilagan. Aql idrok bilan qilingan ish natijasida qurilish maydonining har bir kvadrat metridan to'la foydalanilgan va XIV—XV asrlarga xos g'isht terish uslubiga yangilik kiritilgan.

### **1-rasm**



Asosiy o'lchami: atrof aylanasi 50x67 m, hovli — 28x35 m. Madrasa 17- a. Buxoro mahobatli me'morligining yetuk namunasidir. Madrasa asosan juz'iy ta'mirlar (peshtoq muqarnasini Usta Shirin Murodov ta'mirlagan) asosida tartibga keltirilgan. Hovlisida sayyoohlar uchun millim musiqa va folklor tomoshalari ko'rsatiladi. Shim.-sharqiy burchagidagi miyonsaroyda Buxoro yog'och o'ymakorligi namunalaridan iborat ko'rgazma tashkil etilgan. Shu bilan bir qatorda XVII asr me'morlari tomonidan tom qismlarini yopishda hech qanday yangi konstruktiv uslublar topishmagan: aksincha, masjid, darsxona tepasi XV—XVI asrlardagi uslublardan ancha bo'sh bo'lgan gumbazlar sistemasi bilan yopilgan. Bu yerda 8 qirrali oddiy ravoqli shakllar

va murakkab iroqi muqarnaslar bilan chambarchas bog‘lanib, ajoyib bezak kashf etilgan. Abdulazizzon madrasasining ahamiyati ham shundaki, u serhasham bezalib, Turon me’morchiligida ma’lum bo‘lgan hamma bezaklarning rang-barang uslublaridan foydalanilgan. Xuddi Ulug‘bek madrasasi kabi uning old tomoni hamda hovlidagi ayvon va ravoqlarga koshinli naqshlar ishlangan. Ammo... Bu koshinli g‘ishtlar juda rang-barangdir: sirsiz sopol g‘ishtlar ustiga ko‘k, zangori, oq parchinlar qoplangan. Lekin ular yangicha usulda, choksiz taxtachalar holida yerga — taxminga terilgan va ganch qorishmasi yordamida keyin devorga yopishtirilgan. Abdulazizzon madrasasida xonalarning ichki bezagiga alohida e’tibor berilgan. Darsxona, qishki va yozgi masjid, 2-qavatdagi kutubxona devorlari ko‘k rang zaminli zarhal bezak — xushmanzara kundal usulida tushirilgan bo‘rtma naqshlar bilan bezatilganligi uchun xuddi ustiga zARBOP yopilgandek bo‘lib, boshdan-oyoq yarqirab turardi. Bunda me’morchilikning har bir qismiga, qo‘yingchi, muqarnaslarning eng mayda nuxxalariga ham aniq qilib mustaqil kompozitsiya: yulduzsimon va boshqa shakldagi har bir bezaklar ishlangan. Darsxona devorlarida xitoy chinnisidagi bezaklarga o‘xshatib ishlangan naqshlarni — oq zamin ustiga ko‘k rang bilan berilgan ajoyib manzaralarni, daraxtlar orasiga qo‘yilgan so‘ri, bulut va suv oqimlari tasvirlarini ko‘rish mumkin. Rivoyatlarda keltirilishicha, Abdulazizzon madrasasining qurilishi bilan bog‘liq bizgacha yetib kelgan bir rivoyatga ko‘ra, hukmdor Abdulazizzon 6-marta Makka-yu Madinaga hajga jo‘nabdi. Safar chog‘ida bir kechasi uning tushiga nuroniylar chol kiribdi. Bu nuroniylar chol Abdulazizzonga qarab: „*Sen safardan qaytganidan keyin o‘z vataningda shunday bir me’moriy obida qurginki, bu obida yurtingdagi boshqa obidalarga sira ham o‘xshamasin. Qurdiradigan me’moriy obidangda boqiy va foniy dunyo o‘z ifodasini topsin. Asrlar osha xalq undan bahramand bo‘lib, seni yodga olsin*“, — debdi.

Abdulazizzon safardan qaytganidan keyin Buxorodagi barcha ko‘zga ko‘ringan ustalarni chaqirib, me’moriy obida qurishni va bu obidaning devorlaridagi bezaklar bir-biridan farq qilishi kerakligini, shu bilan birgalikda, devorlardan birida o‘zining siyimosi ham aks ettirilishini aytibdi va „*Aytgan shartlarim o‘z vaqtida bajarilmasa, boshlaringizni tanangizdan judo qilaman*“, — debdi.

Biroq, o‘sha davrda odam rasmini chizish ta’qiqlaniga qaramay, usta-me’morlar bor hunarlarini ishga solib, Abdulazizzon aytgan madrasani qurishga kirishibdilar. Bu me’moriy obida asta-sekinlik bilanyerdan qad ko‘tara boshlabdi. Oradan bir necha vaqt o‘tgandan so‘ng me’moriy obidaning ma’lum bir qismi qurib bitkazilibdi.

Abdulazizzon o‘zi qurdirayotgan obidaning bir qismi qad rostlaganini eshitib, bu joyga tashrif buyuribdi. Ustalar madrasani Abdulazizzon aytganidan ham ziyoda qilib qurishgan ekan. Abdulazizzon madrasasiga kirib, ustalarning ishini ko‘zdan kechirib, o‘ng tomondagi xonaqoh tarafga qarab yuribdi. U xonaqohning janubiy devoriga ilon

va chayonlar surati ishlangan bo‘lib, bu foni y dunyoning mashaqqatlari haqida ma’lumot berarkan. Shimoliy qismida tasvirlangan chizgilar esa bu foni y dunyoning azob-uqubatlariga bardosh beradigan odamlarga boqiy dunyo jannat eshiklari ochiqligidan dalolat berarkan. Xonaqohning g‘arbiy devoriga ishlangan 2 ta ayiq surati mansab va boylik yaratgan tomonidan odamlarni sinab ko‘rish uchun berilishini anglatsa, devorning sharqiy qismida boylik va mansabga berilib, xudoni unutmaslik haqida oyatlar bitilgan ekan.

Abdulazizzon ustalarning mahoratini ko‘rib, bir tomonidan quvonibdi, ikkinchi tomonidan esa o‘zining surati ishlanmaganligidan jahli chiqibdi va me’morga qarab: „*Nega mening suratimni chizmading, endi boshingni tanangdan judo qilaman!*“, — debdi. Shunda me’mor Abdulazizzonni xonaqoh eshigidan tashqariga olib chiqibdi va devorning g‘arbiy qismida chizilgan mehrob ichidagi bir dasta gul tasviriga sinchikovlik bilan qarashni so‘rabdi. Abdulazizzon qarasaki, bir dasta gulda uning siymosi gavdalanib turgan emish. Abdulazizzon yana bir marotaba ustuning mahoratiga qoyil qolibdi.

Shundan so‘ng Abdulazizzon toj-u taxtdan butunlay voz kechib, toat-ibodatga berilibdi. U hukmronlikdan voz kechganidan keyin madrasaning qolgan qismi bitkazilmay qolib ketibdi. Lekin shunday bo‘lsa ham bu madrasa Buxoroning ko‘rkiga-ko‘rk qo‘sib, hozir ham qad rostlab turgan ekan. Bu madrasani tomosha qilishga kelgan har bir kishi bu dunyodagi boqiy hayotning mohiyatini turfa chizgilarda ifodalangan usta me’morlarning betakror mahoratiga tan berar ekan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Barakayev J., Haydarov Y. *Buxoro tarixi (Eng qadimgi davrlardan Ulug‘ oktabr inqilobigacha)*. Toshkent: O‘qituvchi, 1991 — 144-bet.
2. *Buxoro — Sharq durdonasi*. Toshkent: Sharq, 1997 — 232-bet.
3. Jumanazar A. K. *Buxoro ta’lim tizimi tarixi*. Toshkent: Akademnashr, 2017 — 592-bet. ISBN 978-9943-4728-2-2.
4. Jumanazar A. K. *Madoris*. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005 — 96-bet.
5. Jo‘rayev M., Saidova R. *Buxoro afsonalari*. Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002 — 126-bet.
6. Mankovskaya L. Y. *Qo‘sish madrasa*. Toshkent: O‘zbekiston, 1977 — 33-bet.
7. [http://turizm.kasaba.uz/uz/sights\\_of\\_uzbekistan/sights\\_of\\_bukhara/127](http://turizm.kasaba.uz/uz/sights_of_uzbekistan/sights_of_bukhara/127)
8. <https://uz.advisor.travel/poi/Abdulazizzon-madrasasi-24137>